

BOTANIKA

Botanika fanidan bosqichli nazorat og'zaki so'rov shaklida o'tkaziladi. Har bir o'quvchiga 3 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi nazariy va 1 tasi amaliy mashg'ulotga oid bo'ladi. Har bir berilgan savolga javob 5 ballik tizim asosida baholanadi. Baholar umumlashtirilib, o'rtacha baho chiqariladi.

Masalan : $4+5+3=12:3=4$

Amaliy ishlar va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur laboratoriya jihozlari, preparatlar va boshqa materiallar o'qituvchi tomonidan oldindan tayyorlanadi.

1-bilet

1. Tugunakli va ildizpoyali o'simliklar haqida ma'lumot bering.
2. Zamburug'larning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Ildiz tuklarining tuzilishini mikroskopda kuzatish.

2-bilet

1. Barglarning suv bug'latishi qanday amalga oshadi?
2. O'simliklar dunyosiga qanday ekologik omillar ta'sir etadi?
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalarini tushuntirib bering.

3-bilet

1. Shakli o'zgargan yer osti novdalarning qanday shakllari bor?
2. Bakteriyalarning tabiatdagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Oldindan tayyorlangan loviya va bug'doy maysalarining ildizini taqqoslash.

4-bilet

1. Barglarning qanday shakllari farq qilinadi?
2. Lishayniklar va ularning tuzilishi haqida ma'lumot bering.
3. O'q ildiz va popuk ildiz tizimini maktab hovlisidan yig'ib olingan o'simliklar ildizlari misolida o'rganish.

5-bilet

1. Vegetativ usulda ko'payuvchi yovvoyi o'simliklar haqida ma'lumot bering.
2. O'zbekistonning o'simlik boyligi haqida ma'lumot bering.
3. Piyoz po'sti hujayrasini mikroskop ostida o'rganish.

6-bilet

1. Madaniy o'simliklarning vegetativ ko'payishini qanday shakllari bor?
2. Yerda o'simlik dunyosining rivojlanishi haqida ma'lumot bering.
3. Mikroskopning tuzilishini tushuntirib bering.

7-bilet

1. Dorivor o'simliklar haqida ma'lumot bering.

2. Karamdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

3. Gerbariylerden foydalanib o'simliklarning qanday to'pgulga ega ekanligini aniqlang.

8-bilet

1. O'simliklarning qanday hayotiy shakllari bor?
2. Ituzumdoshlar oilasi vakillari mevasining tuzilishi haqida ma'lumot bering.
3. Bakteriyalarni mikroskopda kuzatish.

9-bilet

1. Novdada barglar qanday joylashadi?
2. Dala qirqbo'g'imi haqida ma'lumot bering.
3. Gulli o'simliklarning organlari bilan tanishish.

10-bilet

1. Fotosintez jarayonini tushuntirib bering.
2. Qirqquloqlar bo'limi vakillari qanday sharoitda o'sadi?
3. Barglarning suv bug'latishini tajribada qanday kuzatish mumkin?

11-bilet

1. Hujayra qanday qismlardan tuzilgan?
2. Qovoqdoshlar oilasiga mansub madaniy o'simliklar haqida ma'lumot bering.
3. Bir hujayrali suvo'tlarni mikroskop ostida kuzatish.

12-bilet

1. Hujayraning o'sishi va ko'payishi haqida ma'lumot bering.
2. Ziradoshlar oilasiga mansub o'simliklarning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Atrofimizda o'sib turgan o'simliklardan yoki gerbariylerden foydalanib, yopiq urug'li va ochiq urug'li o'simliklarni o'zaro taqqoslash.

13-bilet

1. O'simlik to'qimalarining qanday turlari bor?
2. Qoqidoshlar oilasiga mansub o'simliklarning gul tuzilishi qanday?
3. Olma, na'matak, qulupnay o'simliklarining barglarini olib, ulardagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlang.

14-bilet

1. Kuzda o'simlik hayotida ro'y beradigan o'zgarishlar haqida ma'lumot bering.
2. O'zbekistonda tokdoshlar oilasiga mansub qanday o'simliklar o'sadi?
3. Mog'or zamburug'idan preparat tayyorlash va uni mikroskopda kuzatish.

15-bilet

1. Ildizning turlari va tizimlari haqida ma'lumot bering.
2. Loladoshlar oilasiga mansub noyob turlar haqida ma'lumot bering.
3. Terak va tol daraxtlarining barglari va yosh novdalarining tuzilishini qiyoslab o'rganish.

16-bilet

1. Botanika fani qanday bo'limlardan iborat?
2. Ra'nodoshlar oilasiga qanday o'simliklar kiradi?
3. Maktab hovlisida o'suvchi o'simliklarning gullari misolida gul tuzilishini o'rganish.

17-bilet

1. Poya nima hisobiga bo'yiga o'sadi?
2. Urug'ning tuzilishini tushuntirib bering.
3. Poyada moddalarning harakatini tajribada kuzatish.

18-bilet

1. Poyada oziq moddalarning harakatlanishini tushuntirib bering.
2. Meva va urug'lar qanday yo'llar bilan tarqaladi?
3. Kurtakning ichki tuzilishini lupa yordamida kuzatish.

19-bilet

1. Poyalarning o'sishiga ko'ra qanday shakllari farq qilinadi?
2. Gullar qanday yo'llar bilan changlanadi?
3. Bosh piyozning ichki tuzilishini o'rganish.

20-bilet

1. Poyaning ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Meva qanday qismlardan iborat?
3. Maktab tajriba maydonida o'suvchi o'simliklarning barg shakllarini o'rganish.

21-bilet

1. Barglarning tashqi tuzilishini tushuntirib bering.
2. Bir va ko'p hujayrali suvo'tlari haqida ma'lumot bering.
3. Hujayralarning xilma-xilligini ko'rish uchun o'simliklarning turli organlaridan preparat tayyorlash.

22-bilet

1. Barglarning ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Funariya yo'sini qanday usulda ko'payadi?
3. Pomidor hujayrasini lupa yordamida kuzatish.

23-bilet

1. Barglar qanday nafas oladi?

2. Ochiq urug'li o'simliklarga qanday o'simliklar kiradi?
3. Barglarning nafas olishini tajribada qanday kuzatish mumkin?

24-bilet

1. Iste'mol qilinadigan o'simliklar haqida ma'lumot bering.
2. Sho'radoshlar oilasiga mansub o'simliklarning gul tuzilishi qanday?
3. Loviya va bug'doy o'simligi urug'larining tuzilishini o'rganish.

25-bilet

1. O'zbekiston Respublikasining «Qizil kitobi»ga kiritilgan o'simliklar haqida ma'lumot bering.
2. Burchoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklarning tabiatdagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Urug'larning nafas olishini tajribada kuzatish.

26-bilet

1. Ildizning tashqi va ichki tuzilishini tushuntirib bering.
2. Piyozdoshlar oilasiga mansub o'simliklar haqida ma'lumot bering.
3. Burchoqdoshlar oilasiga kiruvchi mosh, yantoq, sebarga kabi o'simliklarni o'zaro taqqoslash.

27-bilet

1. Yovvoyi yem-xashak o'simliklari haqida ma'lumot bering.
2. Gulxayridoshlar oilasiga mansub o'simliklarning inson hayotidagi ahamiyati nimalardan iborat?
3. Urug' tarkibidagi moddalarni aniqlash.

28-bilet

1. Kurtakning tuzilishi va turlari haqida ma'lumot bering.
2. To'pgullarning qanday turlari bor?
3. O'sib turgan yoki saqlanayotgan gerbariylardan foydalanib, qirqbo'g'im, archa va na'matakni taqqoslab, ulardagi o'xshashlik va tafovutlarni aniqlash.

29-bilet

1. Ildiz qanday nafas oladi?
2. Bug'doydoshlar oilasi vakillarining poya va barg tuzilishi qanday?
3. Gerbariylardan foydalanib, ziradoshlar oilasiga xos belgilarni aniqlash.

30-bilet

1. Novda qanday qismlardan tuzilgan?
2. Gul qanday qismlardan tuzilgan?
3. Biologiya xonasidagi yorug'sevar va qurg'oqchilikga chidamli o'simliklarni aniqlang.